

**SHARH JANRINING ZAMONAVIY  
JURNALISTIKA JANRLARI TASNIFIDAGI O'RNI**  
*Saparboyev Jaxongir Alimbay o'g'li, Qoraqalpoq davlat universiteti Jurnalistika yo'nalishi 2-bosqich talabasi*  
**THE PLACE OF THE COMMENTARY GENRE IN THE CLASSIFICATION OF GENRES OF MODERN JOURNALISM**

*Saparbayev Jakhongir Alimbay ugli, Karakalpak State University  
2nd year student of the journalism program*

**МЕСТО ЖАНРА ОБЗОРА В КЛАССИФИКАЦИИ СОВРЕМЕННЫХ ЖУРНАЛИСТИЧЕСКИХ ЖАНРОВ**

*Сапарбоеев Жахонгир Алимбай оглы, студент 2-го курса  
направления "Журналистика" Каракалпакского  
государственного университета*

*Annotatsiya:* Mazkur maqolada sharh janrining o'ziga xos xususiyatlari, bu janrning jurnalistika yo'nalishlarida foydalanishdagi ahamiyati muhokama qilingan. Qolaversa, sharh janrining internet, fuqarolik, foto va boshqa jurnalistika turlarida ishlatalishidagi muammolar va olimlarning fikrlari talqin qilingan.

*Kalit so'zlar:* sharh, blogpost, fotosharh, matbuot sharhi, yangi jurnalistika, klassifikatsiya, janr tushunchasi, tahlil.

*Abstract:* This article discusses the specific features of the review genre and its significance in journalistic directions. In addition, the problems of the use of the commentary genre in internet, civic, photo, and other types of journalism, as well as the opinions of scholars, are interpreted.

**Keywords:** review, blog post, photo review, press commentary, new journalism, classification, genre concept, analysis.

**Аннотация:** В данной статье обсуждаются особенности жанра комментария и его значение в использовании в журналистике. Кроме того, интерпретируются проблемы и мнения ученых в использовании жанра комментария в интернет, гражданской, фото и других видах журналистики.

**Ключевые слова:** обзор, блог-пост, фотообзор, обзор прессы, новая журналистика, классификация, понятие жанра, анализ.

**KIRISH.** Yangi jurnalistika – bu janrlarning analiz qilinishidan tortib, uni tarqatish va yana xususiyatlarini qayta yig'ish jarayoni. Ayniqsa, yangi jurnalistikada janrlarning tahlil qilinishi, bajaradigan funksiyasiga qarab guruhlarga ajratilishi va tushunarli tarzda nazariyasining ishlab chiqilishini talab qilayotgan jurnalistikadir. Bundan tashqari, yangi davr jurnalistikasida jurnalistga bir qancha talablar qo'yiladi. Ya'ni, qaysidir janrda material tayyorlashda e'tibor berishi kerak bo'lgan faktorlarni o'rganishi va bilishi kerak bo'ladi. Shuning uchun

ham ayni vaqtda jurnalistika janrlari asosan 3 ta guruhga ajratiladi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.**

Jurnalistikaning asosiy janrlari quyidagilardan iborat: 1.Axboriy janrlar. 2.Tahliliy janrlar. 3.Badiiy-publisistik janrlar. Buning ichida sharh janri barcha janrlardagi elementlarni o'zida mujassam etganligi bilan ajralib turadi. Ya'ni, muayyan bir asar, hodisa, voqeja-jarayon yoki mahsulot haqida fikrmulohazalar bildiriladi, baholanadi, tahlil qilinadi. Sharh janrida yozilgan materiallar odatda o'quvchi



<https://orcid.org/0009-0002-1572-3941>  
e-mail:  
[soporboyevjahongir305@gmail.com](mailto:soporboyevjahongir305@gmail.com)

(tinglovchi, tomoshabin)ga ma'lumot berish, uni ogohlantirish yoki yo'naltirishga qarata yoziladi. Sharh janrida muallif o'z fikrlarini, ya'ni shaxsiy fikrlarini bildira oladi, lekin bu aniq dalillar, faktlar, tajribalardan kelib chiqishi lozim. Sharhanayotgan mavzu haqida chuqur tahlil yuritish ham sharh janrining xususiyatlaridan sanaladi. Bunda sharhanayotgan mavzuning ta'siri, afzalliklari, kamchiliklari, o'rni va barcha uchun ahamiyatli tomonlari tahlil qilinadi. Asosiysi, barcha janrlarga xos bo'lgan xususiyat bu axborot tarqatishdir. Axborot tarqatish barcha janrlarning vazifasi hisoblanadi, reportajda voqeа-hodisa o'rniда turib jurnalist so'z yuritadi. Sharhda ham, masalan sport sharhini olaylik, unda sharhlovchi jonli efirda ma'lum bir sport turini sharhlaydi. O'sha sport turining qachon, qayerda paydo bo'lganidan tortib, sportchilarning xatti-harakatlarigacha sharhlovchi nigohidan chetda qolmaydi. XXI asrda sharh janrining asosiy funkisiyasi ham ma'lumotlarga tayangan holda fikr bildirish sanaladi. Keling dastavval, "sharh" so'zining lug'aviy ma'nosiga to'xtalsak, "sharh" arabcha so'z bo'lib, "izohlash", "tushuntirish" degan ma'nolarni anglatadi. Sharh OAVda ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy voqeа-hodisalarning, hujjat va boshqa shu kabi muhim narsalarning, mohiyati hamda ahamiyatini ommaga tezkor tushuntirib, bayon qilib berish ko'zda tutilgan material turi. "Sharhda faktlarni tahlil qilish, taqqoslash, fikrni dalillashning turli vositalarini qo'llash, umumlashtirish, xulosa yasash kabi usullardan keng foydalanish mumkin"[1].

**NATIJALAR.** Jurnalistikada sharh janrining ma'nosiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, sharh janri nafaqat faktlarni tahlil qiladi, balki taqqoslaydi hamda umumlashtiradi, xulosa chiqaradi. O'zi ushbu janrning jurnalistikada, omma orasida o'rni qanday? Fuqarolik jurnalikaga nazar soladigan bo'lsak, sharh janridan insonlar deyarli har kuni foydalanadilar. Ya'ni ijtimoiy tarmoqlarda kommentariy bo'limida kimningdir blogiga, kontentiga shaxsiy fikr bildiriladi. Bu ham aslida sharh janrining bir ko'rinishi sanaladi. Faktlardan kelib chiqib, ko'rayotgan narsasiga izoh qoldiradi. "Sharh" so'zi adabiyotshunoslikka oid adabiyotlarda quyidagicha talqin qilinadi: Sharh ("kommentariy" – lotincha so'z bo'lib, "belgilash", "izohlash" ma'nolarini anglatadi. Filologik tadqiqotga oid janr, adabiy matnni izohlash, tushuntirish. Sharh matnni

tanqidiy o'rganish jarayonida uning natijalarini bayon qiladi va chop etishga yordam qiladi[4].

*Qadimda Osiyo va Yevropani bog'lab turgan Buyuk ipak yo'lining savdo markazi, madaniyat o'chog'i bo'lgan Samarqand, Buxoro, Urganch kabi shaharlarimiz nomi bashariyatga ko'plab olim-u fuzalolarni yetishtirib bergani, tarixiy obidalari bilan ham tarix zarvaraqlariga bitilgan. Albatta, har zamonning o'z tosh-tarozisi bor. XXI asr insoniyat tarixida iqtisodiy taraqqiyot, ilm-fan va texnologiyada erishilgan ulkan yutuqlari bilangina emas, turli iqtisodiy inqirozlar, ijtimoiy-siyosiy buhronlari bilan ham yodda qoladi. Shu bilan birga, ayni paytda ayrim davlatlarning o'zaro nizolashuvi, urush va vayronagarchiliklar, siyosiy taranglashuv, ijtimoiy tengsizlik avj olgani, odamlar xotirjamligidan turli guruhlar manfaatlari ustun qo'yilayotgani, ulkan shaharlarda yaxshi amallardan ko'ra fahsh ishlar ko'payishi ezgulik ustiga qurilgan tamaddunning yemirilishiga xizmat qilmoqda. Dunyodagi mana shunday murakkab vaziyatda yurtimizda ulkan islohotlar, qadim zamonlarda bo'lgani kabi takrorlanmas bunyodkorliklar amalga oshirilayotgani kishini ikki karra mammun etadi[6].*

Yuqoridagi misolda ham sharh janrining elementlari mavjud ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa, jurnalistning shaxsiy qarashlari faktlar yordamida bildirilib, mavzuni ochib berishga harakat qilinmoqda. Demak, sharh janri, nafaqat boshma OAV jurnalistikasi, balki sport, fuqarolik, harbiy, iqtisodiy, siyosiy, san'at, teleradio va boshqa jurnalistika yo'nalishlarida foydalaniladigan janr sanaladi.

Qoraqalpog'istonlik tadqiqotchi S.Esemuratova o'zining "Fuqarolik jurnalistika va SMI bilan ishlash" nomli ilmiy ishida bir qancha misollar keltiradi. Agar tadqiqotchining ilmiy mehnatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, unda bloglarda kommentariylar bildirilgan. O'sha kommentariylar ham o'zida sharh janrining xususiyatlarini jamlaganligi bilan ushbu janrga misol sifatida ko'ra olamiz. Xullas, jurnalistikada har bir yo'nalish bir-biriga yaqin bo'lib, sharh janri barcha yo'nalishlardagi janrlarning elementlarini o'zida aks ettirishi bilan boshqalaridan ajralib turadi. Masalan, oddiy ijtimoiy tarmoqlardagi kommentariy bo'limi fuqarolik yoki internet jurnalistikasiga oid termin. Ammo biror mavzu yuzasidan izoh, fikr bildirilayotgan ekan, demak u sharh janridagi elementlar mavjudligi bilan shu janrga o'xshaydi. Yana bir misol sifatida fotojurnalistikani olaylik,

unda beriladigan fotolar, nocommentlarga sharh yoki fikrlar bildiriladi. Bular ham qaysidir ma'noda sharh janridagi elementlardan hisoblanadi. Bu bo'yicha O'zbekiston Milliy universitetining jurnalistikka fakulteti tomonidan oliygohning 90 yilligi, jurnalistikka fakultetining 40 yilligiga bag'ishlab chop qilingan "Hozirgi zamon jurnalistikasi" ilmiy ishida quyidagicha fikrlarni ko'rshimiz mumkin. "Hayotni fotosuratlar bilan aks ettiruvchi fotojurnalistika ham fotosharh, ayrim suratli nashrlarda tasviriy (grafik) sharhlar ham qo'llanilishi mumkin. Bularning hammasi sharh janrining ko'p qirralilagini, hayotni aks ettirishda turli vositalardan foydalanishi mumkinligini ko'rsatib turibdi"[1]. Shunday ekan, har bir yo'nalishda bir-biriga yaqinlikni ko'rshimiz mumkin. Boshqacha qilib aytganda, jurnalistikka janrlari har bir yo'nalishda mavjud. Shunday qilib, qaysi jurnalistikaning qaysi yo'nalishida sharh janri qo'llanilmas, hammasida bir xil vazifani bajaradi, ya'ni obyektivlik orqali subyektiv fikrlarni ifodalaydi.

**MUHOKAMA.** Sharh janrining turlarini, uning xususiyatini tahlil qiladigan bo'lsak, "Sharh o'zi turlarga bo'lishinishi kerakmidi?" degan savolga javob topish lozim. Avvalo, bunday paytda sharhning nimaga xizmat qilishini anglash o'rinci. Bu haqida tadqiqotchi A.A.Tertichniy o'zining "Vaqtli matbuot janrlari" kitobida sharh janrining turlari va xizmati haqida izlanishlar olib borgan. Unga ko'ra, "sharh janri tahliliy janrlar guruhiга kiritilgan". Sharhning hozirgi vaqtda ochiq sharh, pardalangan sharh, teleradio sharhi, matbuot sharhi, internet sharhi kabi turlari mavjud. Lekin bu sharh turlari o'z oldiga yana bir qancha mayda-mayda turlarga ajratilishi kerak. Hozirgi jurnalistikada faqat mavzusiga qarab turlarini kuzata olamiz.

Jurnalistikaning tahliliy janrlari qatorida sharh o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ulardan birgina sport sharhini olishimiz mumkin. Bu turdag'i sharhda sharhlovchi ko'pincha sport turlari va ularning terminlari bilan yaqindan tanishishi kerak bo'ladi. Sport sharhi aslida sharh turlaridan eng osoni va qulayi hisoblanadi. Bunda ko'ringan musobaqaning tafsilotlarini boricha izohlanadi. Sport sharhining boshqa sharh turlaridan o'zgacha tomoni, bu sharh turida ko'pincha, sportga taalluqli terminlar, sportga taalluqli iboralardan foydalaniladi. Yana bu sharh turida sharhlovchi mavzuni erkin turda sharhlaydi. Shu jihatlari bilan boshqa sharh turlaridan ajralib turadi.

Bundan tashqari, sharhning siyosiy turlari ham mavjud bo'lib, "Yangi O'zbekiston", "Xalq so'zi", "Erkin Qaraqalpaqstan" kabi gazetalarda chop etiladi. "O'zbekiston 24", "O'zbekiston", "Qoraqalpog'iston" kabi telekanallarda siyosiy sharhlar efirga uzatiladi. Masalan, "Yangi O'zbekiston" gazetasining 2025-yil 7-may sanasida chop etilgan 92-sonida "Kichik biznesni rivojlantirishda muhim hujjat" sarlavhali sharh turida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2025-yil 19-martdag'i "Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni va uning ijrosini ta'minlashdagi chora-tadbirlar haqida, raqamli turda izohlangan. Ozgina parcha keltirib o'tadigan bo'lsak, "Farmon asosida kichik va o'rta biznes subyektlarining yiriklashuvini rag'batlantirishga oid qator chora-tadbirlar nazarda tutildi. Jumladan, 2025-yil 1-maydan boshlab "o'zini-o'zi band qilgan shaxs – yakka tartibdagi tadbirkor – kichik biznes – o'rta biznes – yirik korxona" zanjiri asosida tadbirkorlik subyektlarining yiriklashuvini rag'batlantirish bo'yicha aniq mexanizm joriy qilindi"[7] deb ko'rsatilgan va sharhning siyosiy turiga alohida e'tibor bergen. Agar diqqat qilinadigan bo'lsa yuqoridagi misolda sharhning siyosiy turi, obyektiv ma'lumotlar subyektiv turda talqin qilingan bo'lib, sharh janrining o'ziga xos xususiyatlarini yaqqol ochib beradi.

Gazetaning xuddi shu sonida "Arda Xiva – Xorazmnning zamonaviy tashrif qog'ozi" sarlavhali munosabat ruknida chop qilingan material ham o'zining bo'lib o'tgan voqealar izohlanganligi uchun ham sharhga biroz o'xshab ketadi. Masalan, "Prezidentimizning viloyatimizga har galgi tashrifi biz, xorazmliklar qalbida cheksiz g'urur, faxr va shukronalik tuyg'ularini uyg'otadi. Negaki, davlatimiz rahbari viloyatimizga katta-katta mablag', yirik qurilishlarni amalga oshirish uchun qator tashabbuslar bilan keladi. Bu esa, o'z navbatida, viloyatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish bilan birga aholi farovonligini yuksaltirib, bandligini ta'minlaydi"[7] degan sharh turini ko'rshimiz mumkin. Undan ko'pincha, sharhning izohli, faktlarga asoslanib, o'z fikri orqali yetkazish holatini ko'ra olamiz.

Shunday qilib, sharh nafaqat mavzuni tahliliy turda ochib berishga ko'maklashadi, balki unda ma'lumotlar boshqalariga solishtirilib, fikrlar qo'shilgan holda teletomoshabinga, o'quvchiga yoki

tinglovchiga sifatli turda yetkaziladi. “Jamiyat” gazetasining 24.04.2025-yil sanasidagi 16-sonida “tabiat oldidagi mas’uliyat” sarlavhali material ham qaysidir xususiyatlari bilan sharh janriga o‘xshab ketadi. Misolni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, “So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ham ekologik ta’limga katta e’tibor qaratilmoqda. Maktab va oliy o‘quv yurtlarida ekologik fanlar ta’lim tizimiga joriy etilgan. Milliy kadrlar bazasida ekologiya sohasida mutaxassislar yetishtirish borasida uzluksiz kadrlar siyosati ham yo‘lga qo‘yib borilmoqda. Shu bilan birlashtirishda davlat siyosati darajasida “yashil iqtisodiyot”, “ekologik madaniyat”, “qayta tiklanadigan energiya manbalari” kabi muhim strategiyalar ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilmoqda”[8] kabi misollarda sharhning siyosiy turlari o‘z ko‘rinishini topadi. Sharh janrining siyosiy turida ko‘pincha siyosiy, farmon, qaror yoki qonun hujjatlari haqida izoh beriladi, munosabat bildiriladi. Shu jihatlari bilan siyosiy turda o‘quvchi ko‘ziga tashlanadi.

**XULOSA.** Sharh janri boshqa janrlarga nisbatan o‘zining tahliliy, faktlarni subyektiv fikrlar bilan yetkazish jihatlari bilan ajralib turadi. Tahliliy janrlar ichida sharh boshqalariga qaraganda, sharhlovchining jonli efir orqali yoki o‘sha paytning o‘zida sharhlayotgani, izoh berayotgani orqali farqlanadi. Internet sahifalarida, ijtimoiy tarmoqlarda fuqarolik jurnalistlar o‘zlarining ijtimoiy

tarmoqlardagi betlarida firklarini, izohlarini voqeal sodir bo‘lgan vaqtning o‘zida beradilar. Shu jihatlari bilan sharhning o‘zi ko‘rinishlarini ko‘rsataveradi. Shunday qilib, sharh zamona viy jurnalistikani rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Sharh orqali axborot tahliliy turda obyektiv yetkaziladi va zamona viy mediadagi o‘rnini shu jihatlari bilan to‘ldirib boraveradi.

#### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Hozirgi zamon jurnalistikasi. T.: Aloqachi. 2008. 138-b.
2. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – T.: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2005. 10-tom, 12-b.
3. Литературный нециклический словарь. В.М.Кожевников, П.А.Николаев. – Москва. Советская энциклопедия, 1987. – С. 163, 752.
4. Esemuratova S. Puqaralij jurnalista ham SMM menen islesiw. T.: Yoshlar mediaprint. 2021.73-74-b.
5. Yangi O‘zbekiston gazetasining 22.04.2025 81-soni, [https://t.me/gazetalar\\_sharhi/35125](https://t.me/gazetalar_sharhi/35125)
6. Yangi O‘zbekiston gazetasi 07.05.2025, 92-son [https://t.me/gazetalar\\_sharhi/35392](https://t.me/gazetalar_sharhi/35392)
7. Jamiyat gazetasi 24.04.2025, 16-son [https://t.me/gazetalar\\_sharhi/35133](https://t.me/gazetalar_sharhi/35133)

